# YASHIL KELAJAKNI ASRAYLIK DO’STIM !

**Xolbutayeva Shahnoza Jumanazar qizi**
O’zbekiston davlat Jahon tillari universiteti 1-bosqich 2403-guruh talabasi
*E-mail: xolbutayevashahnoza776@gmail.com*
*Tel: +998-94-776-19-02*

Qo’lni qo’lga berib bugun mardona,
Bir maqsad yo’lida bo’lib yagona,
Bir shior ostida birlashib yana,
Yashil kelajakni asraylik do’stim !

Keling , tabiatga bo’lmaylik befarq,
Gulu-gulzorlarga qilaylik shavqat,
Bog’lar yarataylik topib shijoat,
Yashil kelajakni asraylik do’stim!

Ajdodlardan meros adolat bizda ,
Suv va havo azal to’tiyo ko’zga ,
Vatan deb tuproqlar surilar ko’zga,
Yashil tabiatni asraylik do’stim !

Atrof go’zalligi hayotga yo’ldir,
Asra tabiatni , rizqing mo’l-ko’ldir,
Bir maqsad yo’lida birlashish shuldir,
Yashil tabiatni asraylik do’stim !

Yurtboshim aytadi kelajak sizda ,
Tabiatni asrash har biringizda ,
Go’zal hayot bizni shu yelkamizda ,
Yashil kelajakni asraylik do’stim !

Dunyo minbarida nomi ulug’vor,
Yurtim tabiati go’zal , betakror
Tillarda maqtalar takror va takror
Yashil kelajakni asraylik do’stim!

Birlashsak tog’larni qilamiz talqon,
Birlashsak cho’llarda yaralar bo’ston ,
Yashil shahar bo’lar hur O’zbekiston ,
Yashil kalajakni asraylik do’stim !